MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

AN’ANAVIY O‘ZBEK CHOYXONALARI: PAYDO BO‘LISH TARIXI, TURLARI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

Umidjon Tursunov,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
Ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil etish va arxivlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan choyxonalarning kelib chiqish tarixi, ularning turlari va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy vazifalari yoritilgan. Xususan, XVIII asr boshlarida Qo‘qon xonligida choy savdosining yo‘lga qo‘yilishi va ilk choyxonalarning paydo bo‘lish jarayonlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Toshkent shahridagi mashhur “Ilhom samovarchi” faoliyati misolida choyxonalarning ma’rifatparvarlik, san’at va musiqiy hayot markazi sifatidagi o‘rni ochib berilgan. Sovet davrida choyxonalarning mafkuralashtirilishi hamda bugungi kunda milliy qadriyatlarning tiklanish jarayonidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *choyxona, samovar, Ilhom samovarchi, Qo‘qon xonligi, askiya, maqom, mahalla, madaniy meros, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: *В данной статье освещаются история возникновения, классификация и социокультурные функции чайхан, занимавших важное место в многовековой культурной жизни узбекского народа. На основе исторических источников проанализированы зарождение чайной торговли и появление первых чайхан в Кокандском ханстве в начале XVIII века. На примере деятельности известного ташкентского чайханщика «Ильхома самоварщика» раскрыта роль чайхан как центров просвещения, искусства и музыкальной жизни. Также рассмотрены попытки идеологизации чайхан в советский период и их значение в возрождении национальных ценностей на современном этапе.*

Ключевые слова: *чайхана, самовар, Ильхом самоварщик, Кокандское ханство, аския, маком, махалля, культурное наследие, национальные ценности.*

Abstract: *This article highlights the history of origin, types, and socio-cultural functions of teahouses (chayxonas), which have played a significant role in the centuries-old cultural life of the Uzbek people. Based on historical sources, the initiation of tea trade and the emergence of the first teahouses in the Kokand Khanate at the beginning of the 18th century are analyzed. Using the activities of the famous Tashkent teahouse keeper "Ilhom samovarchi" as an example, the study reveals the role of teahouses as centers of enlightenment, art, and musical life. Furthermore, the ideological transformation of teahouses during the Soviet era and their importance in the revival of national values at the present stage are discussed.*

Keywords: *teahouse (chayxona), samovar, Ilhom samovarchi, Kokand Khanate, askiya, maqom, mahalla, cultural heritage, national values.*

Bunyodkor o‘zbek xalqi mehnat qilish, ilm cho‘qqilarini egallash bilan birga dam olishni, miriqib hordiq chiqarishni ham o‘z o‘rniga qo‘ygan. To‘y-u tomosha, bayram va sayillarda san’atkorlarni taklif etiib, sarxil mevalar-u, tansiq taomlardan dasturxon yozib mehmondorchilik qilgan. Tabiiyki, choyxonalar bunday mehmondorchilik va

ko‘ngilxushlik qilish uchun juda qulay joylardan biri hisoblangan.

O‘zbek xalqining qadimdan sevimli maskanlari bo‘lib kelayotgan choyxonalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Choyxonalarda choyxo‘rlar ovqatlanib dam olish bilan bir qatorda o‘zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishganlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar – suhbatlar, she’rxonlik kechalarda ishtirok etib o‘zlarining dunyoqarashlarini shakllantirganlarganlar. Sozanda va xonandalarning san’atidan baxramand bo‘lganlar. Askiyachi va qiziqchilarning chiqishlarini ko‘rib miriqib kulganlar.

Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy xodimi, o‘zining qariyib yarim asrlik ilmiy faoliyatini Qo‘qon tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan Muhammad Yahyoxon Xo‘qandiy – Yahyoxon Dadaboyev o‘zining “Xo‘qandi latif hunarmandchiligi” risolasida keltirishicha, yurtimizda choyxonalarning paydo bo‘lish tarixi XVIII asr boshlariga, yurtimizda choy savdosi boshlanishi bilan bog‘liq. To‘g‘ri, choy yurtimizga ancha avval kirib kelgan. Ammo dastavval savdogarlar va boy xonadon vakillarigina bunday lazzatdan bahramand bo‘lish nasib etgan.

Hijriy 1121, milodiy 1709-yilda Qo‘qon xonligi tashkil topib, Shohruxbiy taxtga o‘tirgach, har narsaga qiziquvchi, hech narsani nazardan chetda qoldirmaydigan Xitoy imperatori mazkur yangi davlat hamda uning hukmdori haqida ma’lumot to‘plash maqsadida o‘z mansabdorlaridan birini savdogar niqobida Xo‘qandga yuboradi. Mansabdor Shohruxbiy qabulida bo‘lib, u bilan uzoq suhbat quradi. Suhbat asnosi boshqa ajoyib buyumlar qatori Shohruxbiyga ikki qadoq eng yaxshi ko‘k choy sovg‘a qiladi. Ammo Shohruxbiyni hayratga sola olmaydi, zero, hukmdorga choyni oldinroq savdogarlar olib kelishgan hamda uni o‘zlari damlab birgalikda choyxo‘rlik qilishgan edi. Suhbatning foydasi shu bo‘ldiki, mansabdor Shohruxbiy hamda uning yangi tuzgan saltanati haqida rasmiy ma’lumot oldi. Shohruxbiy esa Xitoydan choy olib kelish imkoniyatlaridan xabardor bo‘ldi. Bir qancha vaqt o‘tgach, Xitoyga qatnab savdo qiluvchi yirik savdogar Abdufattoh Karvon Abdusome’ o‘g‘li xijriy 1128, milodiy 1716-yilda Xitoydan boshqa mollar qatori besh botmon (1 botmon – 1 pud – 16 kg.) ko‘k choy olib keladi”[i]. Bundan xabar topgan Qo‘qon xoni Shohruxbiy Abdufattoh Karvon Abdusome’ o‘g‘liga choy savdosi bilan shug‘ullanishi uchun Chorsu maydoni hududidan joy ajratishga topshiriq beradi. Ammo oddiy xalq shu kungacha choy nima ekanligini bilmagani, uni ichib ko‘rmaganligi uchun hech kim choyni sotib olmaydi. Buni ko‘rgan Abdufattoh Karvonning otasi Abdusome’ Oxund o‘g‘liga choyni xaridorga damlab sotishni maslahat beradi. Ota maslahatiga ko‘ra, Abdufattoh Karvon chorsu maydonidagi qayrag‘och daraxti ostida suv qaynatish uchun o‘choq qurib, choyxo‘rlar uchun supalar yasatib, Xitoydan olib kelingan choynaklarga va kichikroq ko‘zalarga choy damlab supalar ustiga chiqarib qo‘yadi. Boshida bu ham ish bermaydi. Odamlar to‘planib, qiziqib tomosha qilib tursalarda hech kim bu yangi ichimlikni ichib ko‘rishga botina olmaydi. Abdufattoh Karvon damlangan choylarni xaridorlarga tekinga tarqatadi. “Odamlar yurak yutib, xitoy piyolalariga quyilgan choydan ichib ko‘radilar. Dastlab aftlarini bujmaytiradilar, biroz o‘tgach esa, og‘izlari choyning achchiq-taxir, ammo o‘ziga jalb etuvchi ta’mini tuyib yana ho‘plab ko‘rgilari keldi. Nihoyat, damlab qo‘yilgan bir necha choynak choyni ichib tugatdilar. Ularga hech narsa bo‘lmaganligi, qaytaga tabiatlari ochilib ketganini ko‘rgan boshqa odamlar choy ichgilari kelib qoladi” [1, 379]. Buni ko‘rgan aholi o‘rtasida choyga nisbatan qiziqish orta boshlaydi. Tez orada

shaharda choy haqidagi xabarlar tarqaladi. Ikki kun tekinga choy tarqatilganidan keyin uchinchi kunidan xaridorlar choyni pulga sotib oladilar. Shu kundan boshlab Chorsu maydonidagi qayrag‘och ostidagi bu joy choyxona deb atala boshlaydi. Choy savdosi bilan bir qatorda choyxonalar ham sekin asta ommalashib boradi. “Choyxonalar yangi ochilgan paytda choyxona egalari choyxo‘rlarni jalb etish uchun hofizlar, mashshoqlar, qiziqchilar, huqqabozlar (janglyorlar), bozingarlar (akrobatlar), ko‘zboylovchilar, voizlar, qissaxonlar, qasidaxonlar hamda o‘z san’ati va hunari bilan xalqni qiziqtira oladigan boshqa kasb sohiblarini taklif qilib turar, shu tufayli choyxonalar tomoshaxonalarga aylanib, choyxo‘rlar adadi osha bordi[1, 379]. Choy avval qumg‘on va choyqozonlarda qaynatilgan bo‘lsa vaqt o‘tib choyxonalarga rus samovarlari kirib kela boshladi. Shundan bo‘lsa kerak ba’zi hududlarda choyxona atamasi bilan bir qatorda samovar so‘zi ham ishlatilib choyxona egalarining ismiga “Samovarchi” so‘zi qo‘shib ataladigan bo‘ldi. (“Ilhom Samovarchi”, “Alimat samovarchi”...) Samovar kirib kelgunicha bizda qumg‘on choy qozon va qaynarqumg‘onlardan foydalanilgan. “Samovarning qaynar qumg‘onlardan farqi shundan iborat ediki, avvalo, unga qaynar qumg‘onga nisbatan ko‘proq suv sig‘adi; ikkinchilan uning burama jo‘mragi borki, bu narsa choy damlash jarayonini osonlashtiradi.

Keling, el ichida mashhur bo‘lganlar shunday choyxonachilardan biri bo‘lgan Ilhom samovarchi haqida to‘xtalib o‘tsak. Xalq orasida “Ilhom samovarchi“ nomi bilan shuhrat qozongan toshkentlik Ilhomjon Inog‘omjonov 1873-yilda bandak to‘quvchi oilasida dunyoga kelgan. Eski maktabda o‘qib, hunarmandlardan turli kasblarni o‘rgangan, san’atkorlardan musiqa sirlarini o‘zlashtirgan. Toshkentda birinchi bo‘lib fotosurat olish sir-asrorlarini o‘rganib, xususiy foto-studiya ochgan. Hofiz va sozanda sifatida nom qozonib Buxoro amirligi hamda Turkiston o‘lkasi hududlarida tashkil etilgan tadbirlarda ishtirok etib xalqning olqishiga sazovor bo‘lgan. Aka ukalari bilan hamkorlikda choyxona ochgan. “Bularning choyxonasi Ko‘kaldosh madrasasining orqasida, Majjome (Jome masjidi)ga chiqaverishda, burchakda bo‘lgan”[2, 46]. Yangilikga o‘ch bo‘lgan Ilhom samovarchi o‘zi ham yangilik kiritishga harakat qilgan. Masalan, o‘zi tashkil etgan choyxonaning yarmi an’anaviy sharq me’morchiligi asosida bo‘lgan bo‘lsa, qolgan ikkinchi qismini yevropaliklarning didiga moslab maxsus xonalar, stol-stullar, kumush idishlarga solingan stakanlar bilan jihozlagan. “ ... choyxonaning bir tomoniga maxsus ishkof (shkaf) qurdirib, gromofonning plastinkalarini sotishgan. Mulla To‘ychi Hofizning birinchi plastinkalari shu yerda sotilgan. Bundan tashqari hamma cholg‘ular devorda osig‘liq turgan. Toshkanddagi mashhur xonanda va sozandalardan Shobarot domla (g‘ijjak chalib ashula aytardi), Solihxon hoji, Yodgor xo‘ja va yana boshqa ko‘p san’atkorlar shu choyxonada bo‘lishar va ajoyib kuylar chalishardi”[2, 47].

Ilhom samovarchini xalqimiz bugungi kunda nafaqat samovarchi sifatida, balki ma’rifatparvar inson, yurt ozodligi uchun kurashgan jadid sifatida ham yaxshi taniydi. O‘sha davr adiblari Toshkent shahrining inqilobgacha bo‘lgan muhitini tasvirlashda Ilhom Inog‘omjonov obrazi orqali yoritishga harakat qilganliklarini ham ko‘ramiz. G‘afur G‘ulom o‘zining “Shum bola” asari voqealarini Ilhom samovarchining choyxonasidan boshlasa, Yunus Rajabiy o‘z xotiralarida “Ilhom samovarchi”ning choyxonasi Toshkentdagi musiqa va madaniy hayotning eng muhim markazlaridan biri, o‘zi esa musiqa shaydosi bo‘lganligini va u O‘zbekistonning turli burchaklaridan eng mohir maqom ijrochilari

hamda sozandalarni shaxsan taklif etganini alohida ta’kidlaydi.

Choyxonalarni joylashuvi va vazifasiga ko‘ra to‘rt turga bo‘lishimiz mumkin. Bulardan birinchisi bozor choyxonalari. Bunga biz yuqorida aytib o‘tgan Ilhom samovarchining choyxonasi misol bo‘la oladi. Bunday choyxonalarda asosan savdogarlar, xaridorlar va bozor hududidan do‘kon ochgan hunarmandlardan tashkil topgan gap jo‘ralar, ulfatlar yig‘ilganlar. Bunday choyxonalar asosan bozor kunlari faoliyat yuritgan.

Choyxonalarning yana bir turi karvon yo‘llarida joylashgan, sayyohlar, kambag‘al musofirlar va karvonchilar uchun mo‘ljallangan yo‘lboshi choyxonalari. Bu maskanda ham ulfatlar to‘planib osh yeyishgan bo‘lsa-da, bunday choyxonalarda turli taomlar tayyorlanganligi uchun tushlik vaqtlarida mijozlarga ham xizmat ko‘rsatgan, ba’zan musofir va yo‘lovchilar uchun vaqtinchalik boshpana – mehmonxona vazifasini ham o‘tagan.

Mahalla ahli, qariyalar yig‘iladigan mahalla choyxonalari. Bunday choyxonalar mahalla ahlining asosiy to‘planish joyi – mahalla majlislari, bayram tantanalari va ziyofatlari, mahalla ahamiyatiga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilinadigan maskan hisoblangan. Bu choyxona ahli har kuni nonushtaga yig‘ilib, bir-biri bilan diydorlashadi, kun kech bo‘lganida esa yana choyxonaga yig‘ilishib, o‘zaro suhbat qurg‘an, shaxmat-shashka, karta o‘ynab, gazeta, jurnallar o‘qib yangiliklardan xabardor bo‘lishgan. Bunday choyxonalarning asosiy mijozlari mahalla ahli bo‘lganligi uchun choyxo‘rlardan birortasi bir-ikki kun ko‘rinmay qolsa, jo‘ralari, albatta, xonadoniga kirib undan xabar olganlar. Mahalladoshlardan kimdir yangi uy qurayotgan, to‘y qilayotgan yoki boshiga kulfat tushgan bo‘lsa, hamma yig‘ilib maslahatlashib hashar qilishgan, moddiy yordam berishgan. Biror oilaning farzandi nomaqbul ishlar qilayotganini sezsa, mahalla ahli bunday oilalarga tanbeh berib, to‘g‘ri yo‘lga solishgan.

She’rxonlik, musiqa va askiya san’ati namoyish etiladigan ijodkorlar choyxonalari. Bunday choyxonalar madaniyat va istirohat bog‘lari, shaharning gavjum, salqin va xushmanzara joylarida tashkil etilgan. Bunday choyxonalarga mashhur hofizlar, nomdor askiyachilar, shoir va yozuvchilar taklif qilinib maqomxonlik, qissaxonlik, g‘azalxonlik va askiya kechalari tashkil etilgan.

Shuningdek, o‘zining funksiyasi va mazmun mohiyatiga ko‘ra, choyxonaga o‘xshab ketadigan yana bir maskan bo‘lib, uni xalqimiz takyalar deb ataganlar. Bu yerda asosan muayyan hunar egalari yig‘ilib, o‘z marosimlarini o‘tkazganlar. Gapxo‘rlik, harifona ziyofatlar o‘tkazganlar. Dam olib, ustozlarining o‘gitlarini tinglaganlar. Qo‘y so‘yib bir qismini kambag‘allarga ulashib qolganiga ziyofat qilganlar.

Lekin choyxonalar doim ham xalqning ko‘ngilochar masakin bo‘lavermagan. Choyxonalarni Sobiq sho‘rolar tuzumi ham e’tibordan chetda qoldirmadi. Undan tuzum manfaati yo‘lida foydalanishga urinishlar bo‘ldi. Bu yerlarni agitatsiya-propaganda maskaniga aylantirib, sovet mafkurasini targ‘ib va tashviq qilishga urinishlar bo‘ldi. Barcha choyxonalarda qizil burchaklar tashkil etilib, u yer kommunistik partiya g‘oyalari bilan to‘yingan gazeta va jurnallar, marksizm va leninizm doxiylari va “Politbyuro” a’zolarining suratlari, turli kasb egalari uchun eslatmalar va ateistik ruxda yozilgan maqolalardan tashkil topgan broshyuralar bilan to‘ldirildi. Vaqti-vaqti bilan ma’ruzachilar o‘z “leksiya”lari bilan ishtirok etib turganlar. Sovet arxitektorlari tomonidan ishlab chiqilgan

loyiha asosida zamonaviy choyxonalar qurilgan. (Olmazor tumani, Qoraqamish mavzesidagi “Farg‘ona”, Shayxontohur tumani Samarqand darvoza mahalla hududidagi “Samarqand” choyxonalari). Bu binolar “Shaklan milliy, mazmunan internatsional” tamoyili asosida qurilganligi, xalqimiz mentaliteti hisobga olinmaganligi uchun choyxo‘rlar orasida uncha e’tibor qozona olmadi. O‘sha davrlarda odamlar nazaridan chetroqda qolgan ba’zi choyxonalar nopok insonlar tomonidan qimorxonalarga aylantirilib, o‘g‘riboshilar yig‘iladigan, o‘zlarining jinoiy ishlarini amalga oshiradigan maskanga aylangan holatlar ham bo‘lgan.

Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan milliyligimiz, o‘zligimiz, urf-odatlarimiz qayta jonlangan davrda choyxonalar ham xalqimiz xizmatida. Bu yer yana avvalgi holiga kelib, choyxo‘rlar dam oladigan, miriqib mazali taomlar tanovvul qiladigan, mazmunli suhbatlar quradigan, keksalar yoshlarga pand-nasihat beradigan, yoshlar esa keksalarning duolarini olish payida bo‘ladigan maskanga aylanmoqda. Xalqimizning asrlar davomida bizga yetib kelgan san’atining katta ashula, maqom, askiya kabi turlari jarang taratib, muxlislarini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘qandiy, Muhammad Yahyoxon. Xo‘qandi latif hunarmandchiligi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.

2. Тўҳтамурод Зуфаров. Соз ва созгарлик тарихи. “MERIUS”. Тошкени-2014.

3. G‘ulom, G‘afur. Shum bola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

4. Etnografik kuzatishlar va xalq og‘zaki ijodi materiallari.